

SAYLOV JARAYONLARIDA ISHTIROK OMILI

Fayzullayev Shohruh Jo'rabek o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Zamonaviy siyosatshunoslikda siyosiy jarayonlarda ishtirokning o'rni va uning siyosiy hayotdagi muhim jihatlarini o'rganish ahamiyatlidir. Ushbu maqolada biz siyosiy jarayonlarda ishtirok omili, ularning xilma-xilligini va siyosiy sohada qanday rol o'ynashini tahlil qilamiz.*

Kalit so'zlar: *Siyosiy ishtirok, subyekt, faol ishtirok, oraliq ishtirok, kuzatuvchi ishtirok, apotik ishtirok.*

Saylov jarayonlarida ishtirokchi omili ovoz berishda qatnashgan fuqarolar sifatida, ularning siyosiy va jamiyatda o'z fikrlarini ifoda etish, saylovda qatnashish va o'zlarining so'zini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini anglatadi.⁸ Bu atama saylovlarda o'z hissiyotlarini, fikrlarini va ruxsatlarini ifodalashni bildirish uchun o'zgaruvchan bir vosita bo'lib, demokratik jamiyat tizimida fuqarolarning ishtirokida muhim ahamiyatga ega. Saylov jarayonlarida ishtirokchi omili barcha fuqarolarning siyosiy tartib va huquqlarini amalga oshirish, davlat siyosati va rahbariyatga shakllantirishda o'z ovozlari bilan birgalikda ishtirok etishlarini ifodalovchi bir vosita hisoblanadi. Bu demokratik jamiyat tuzilmasining asosiy prinsiplari orasida saylovchilarning faol hissa qo'llashini ta'minlash uchun muhimdir. Ishtirokchi omili orqali saylovchilar o'z hohishlarini ifodalaydi va ovozlari qo'llaydi. Bu siyosiy jarayonlarda transparensiya, adolat va jamiyatning qonun va huquq tizimiga ishonch hosil qilishni ta'minlaydi. Saylovchilar o'zlarining ovozlari bildirish orqali davlatni shakllantirishda, rahbarlarni tanlashda, siyosiy va ijtimoiy masalalarga oid qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishlari mumkin. Ishtirokchi omili, jamiyatning bir qatlaminin tashqi ahamiyatli masalalarda qatnashish, siyosiy hayotda faol rol o'ynash, va o'z fikrini ifodalash imkoniyatini ta'minlashda muhim vazifalarni bajaradi. Bu omil saylov tizimining demokratik prinsiplariga va huquqiy tamoyillariga asoslangan. Yana bir muhim jihati bu omilning adolatli va ochiq saylov tizimining qurilishini ta'minlashda o'z omilini ko'rsatmoqda. Ishtirokchi omili, saylovchilarning barcha qatlaminin qonun va huquqni o'zgartirish, yangilash va rivojlantirishda ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Bu jarayon demokratik jamiyatni barqarorlashishini ta'minlaydi, demokratik yangilanishlarga imkoniyat yaratadi va jamiyatning o'zini rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

1. ⁸ <https://journalism.uoregon.edu/news/six-ways-media-influences-elections>

Siyosiy ishtirok-zamonaviy politologiyada siyosiy ishtirok fuqarolarning xohish istaklari definitiyasi deb yuritiladi. Fuqarolarning xohish istagi har qanday siyosiy jarayonning unga qaratilgan maqsadi, manfaatlari, imtiyozlari va talablar impulsiga bog'liq. Siyosiy ishtirok bu siyosiy subyektlarning maqsadli xatti-harakatidir. Siyosat subyektlari davlat, jamoa, shaxs hisoblanadi.

Saylov jarayonida siyosiy ishtirok bir necha turlarga bo'linadi. Bu jarayonni Amerikalik olim Melbert tomonida ishlab chiqilgan va u faol, oraliq, kuzatuvchi, apotik turlarga ajratgan.

Faol ishtirokchi-o'zini nomzod qilib ko'rsatganlar, siyosiy kompanyalarning tashkilotchilari va davlat organlarining raxbar xizmatchilari.

Oraliq ishtirokchilar-rasmiy siyosiy yig'ilishlarda ishtirok etuvchi, siyosiy jarayonlarga homiylik qiluvchi siyosiy subyektlar o'rtasida aloqani o'rnatishga vositachilik qiladi.

Kuzatuvchi ishtirokchi-siyosiy jarayonlarda shior, lagotib bilan ishtirok etuvchi turli baxs munozaralarga jalb etuvchi ishtirokchilar hisoblanadi.

Apotik ishtirokchi-befarq, loqayt, xohish-istaklarsiz, o'z manfaatlari va huquqlarini talab qilmaydigan va bilmaydigan shaxslardir.

Saylov jarayonlarida fuqarolarni faol ishtirokini taminlash uchun ularni bu jarayonga qiziqtirish talab etiladi va quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish kerak. Shaxslarni jarayonga nisbatan qiziqishini oshirish uchun jarayonga nisbatan manfaatdorlik, bilish, mafkuraviy, an'anaviy, merkotil, apsentizm motivlariga e'tibor qaratish kerak. Merkotil motiv-siyosatga va uning jarayoniga haq to'lanadigan soha deb qiziqish. Apsentizm motivi siyosiy jarayonlarda ishtirok etishdan bosh tortish.

Saylov jarayonlarida ishtirokchilar jarayon haqida to'liq malumot olish va ularni amalga oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim.

1.Ma'lumot olish va tushunish: Saylov jarayonida ishtirok etayotgan saylovchilar va saylov tizimining tuzilishi haqida ma'lumot olish. Ovoz berish jarayonini tushunish, qanday ovoz berilishi kerakligi, huquqiy muammo bo'yicha ma'lumotlar saqlanishi, saylov natijalarini tahlil qilish jarayonini tushunish muhimdir.⁹

2.Ovozni qo'llab-quvvatlash va saylovning adolatli o'tkazilishi: Ovozni qo'llab-quvvatlash tadbirlari, adolatli saylov tizimini ta'minlash uchun kerak. Tadbirlar saylovdan oldin, saylov kunida va keyinida ovozlar to'plash jarayonini o'z ichiga oladi.

3.Siyosiy majburiyat va ishtirokchilik: Siyosiy partiyalar, tanlov huquqini qo'llab-quvvatlash, saylovdan oldin kampaniyalarni o'tkazish orqali ovoz olishni qo'llab-quvvatlash. Ovoz olish kunida siyosiy partiyalarning siyosiy majburiyatni oshirish.

4.Transparensiya va ogohlantirish: Saylov jarayoni bo'yicha transparensiya ya'ni ovoz berish va natijalar haqida ommaga oziq-ovoz bildirish muhimdir. Ogohlantirish vositasi orqali saylovchilarga to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot yetkazilishi, saylov jarayonining ovozlar to'plash va hisoblash jarayonlarini ochiq ko'rsatilishi kerak.

⁹ <https://lex.uz/docs/-4386848>

5.Xavfsizlik va huquqiy himoya: Saylov jarayonida xavfsizlik va huquqiy himoya muhimdir. Ovoz olish jarayonlari va saylov tizimi bo'yicha xavfsizlikni ta'minlash, saylovchilar va saylov tizimi xodimlarining huquqlarini himoya qilish, saylov kunida yolg'izlik va boshqa huquqiy muammolarga e'tibor qilish kerak.

6.Saylovchilar bilan hamkorlik: Saylovchilar bilan suhbatlashish, ularning savollarini eshitish va javob berish, ma'lumotlarini qabul qilish, ularning fikrlariga hurmat ko'rsatish muhimdir. Saylovchilar bilan hamkorlik tuzilishi, ularning tushunchalarini o'rganish, saylovchilarning murojaatlari va takliflari bilan shug'ullanish, siyosiy jarayonni demokratik va transparensiya asosida o'tkazish uchun muhimdir.

Saylov jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun bu amallarni amalga oshirish, demokratik jamiyat tizimini kuchaytirish va fuqarolarning ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/-4386848>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy_partiyalar
3. <https://milliycha.uz/siyosiy-jarayon-subyektlari/>
4. <https://journalism.uoregon.edu/news/six-ways-media-influences-elections>